



Qo‘qon xonligi tarixiga doir manbalardagi ayollarlarga xos antroponimik birliklar xususida

Xalilova Nilufarxon Bahromovna
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
2-bosqich doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qo‘qon xonligi tarixiga oid manbalarda uchraydigan ayollarga xos antroponimik birliklar: ismi, laqabi, taxallusi va otaysmi, ularning mazmuniga xos ma‘lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon xonligi, antroponim, leksema, indikator, leksik-semantik, morfologik, etimologik, motiv, taxallus, laqab.

Qo‘qon xonligi – O‘zbekistonning ko‘p ming yillik tarixida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan davlat hisoblangan. Xonlikning tarixiga nazar tashlasak, uning tashkil topishidan boshlab, so‘nggi kunlarigacha murakkab siyosiy jarayonlar, keskin ijtimoiy va iqtisodiy vaziyatlarni boshdan kechirganini ko‘ramiz. Shunday bo‘lishiga qaramay, Qo‘qon xonligi O‘rta Osiyodagi boshqa xonliklarga nisbatan o‘ziga xos nufuzga va strategik mavqega ega davlat bo‘lgan. Bu davlatda buyuk qahramon va sohibqironlardan tashqari, bir muncha aqlli va dono malikalar, xonzodalar ham yashab o‘tganligi haqida xonlik haqida hikoya qiluvchi tarixiy manbalar guvohlik beradi. Ushbu maqolamizda manbalarda uchraydigan ba‘zi ayollarning ismlari va laqablari hamda ular anglatgan ma‘noga to‘xtalamiz. Manbalardagi ayollar ismlarida ko‘proq *oy*, *xonim*, *begim*, *poshsha* indikatorlari uchraydi. Buni tarixchi va olim Niyoz Muhammad Xo‘qandiy aynan Qo‘qon tarixiga oid “Tarixi Shohruxiy” (“Ibratul xavoqin”) asarida shunday izohlaydi: “Xotinlar nomidan keyin “oyim” so‘zi yozilsa, uni xonim deb tushunmoq kerak. Bu o‘lkada xon va amirlarning xotinlarini “oyim”lafzi bilan qo‘shib aytish rasmdir”¹⁸. Shuningdek, *oyim*, *xonim*, *begim* so‘zlaridagi -im qo‘shimchasi o‘zbek tilidagi egalik qo‘shimchasi emas, balki qadimgi turkiy tillardagi “uma”(ya‘ni ona) so‘zining qisqargan ko‘rinishidir. Demak, “begim” degani “bek ona”dir. Oyim qismi esa oliynasab avlodga mansub qiz, ayol, hurmatli, e‘zozli; taqvodor xonadonga mansub qiz, ayol ma‘nolarini anglatadi. Masalan: *Kenagas oyim* nomi bilan tanilgan *Oychuchukoyim*, *Oyjonoyim*, *Oftoboyim*, *Mohlaroyim*, *Xonposhsha va b.* O‘zbek tili antroponimlarining lug‘aviy tarkibida fors-tojik, arab tilidan o‘zlashgan ismlar ko‘plab uchraydi. Buning sababi, VIII asrda arablar o‘zlari bilan tilini ham olib kirganligi hamda o‘zbek tiliga uzoq o‘tmishdan yaqin vaqtlargacha o‘zbek va tojik xalqlarining yaqin qo‘shnichilik munosabatlaridir. Qo‘qon xonligida tojik millatiga mansub axoli salmoqli o‘rinni egallagan, shu bilan birga hozirgi Tojikiston Respublikasining ma‘lum bir qismi Qo‘qon xonligi tarkibiga kirgan. Shuning uchun ham o‘zbek tiliga fors-tojik tilidan ko‘plab

¹⁸ Ниёз Муҳаммад Хўқандий. Ибратул Хавокин. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2014. – В. 347.



leksemalar o‘zlashgan va bu ismlarga ham tegishli. O‘zbek tilshunosligida ismlarni yig‘ish va ularning leksik-semantik, morfologik, etimologik xususiyatlari borasida tilshunos olim E.Begmatovning xizmatlari beqiyos¹⁹.

Ag‘ochaoyim/ Og‘achaoyim – Xudoyorxonning xotini. “Bir muncha zamon o‘tub, muqallab Ag‘ochaoyim zaifasi bir og‘il tavallud aylab nomi Fansurullohbek (edi) o‘ldi”²⁰. Og‘acha (o‘z.) – xon qizi aslzodalar yoki xon xizmatkori bo‘lgan ayol.

Yorqinoyim (Jarqinoy, Hokimoyim, 1802-1868) – Sheralixonning qirg‘iz xotini, Xudoyorxonning onasi. Yorqinoy 1802-yili Namangan viloyatining Uychi tumanidagi Qizil Rabot qishlog‘ida tavallud topgan, Axsilik To‘xtanazar dodxohning qizi. Yorqinoyim “Xonoyim”, “Hokimoyim” nomlari bilan shuhrat topgan. Hokim (ar.) – boshliq, hukmdor, yo‘lboshchi. “Ta‘rixii madrasai volidai xoni zamon, ya‘ni **Hokimoyim** vasiyat etgan edi. Vasiyatga amal etib, Xudoyorxon masjidi jomening sharq tarafida bir oliy madrasa bino etdi”. (Ibratul., 301). Yorqinoy (o‘z.) – hayoti nurli va oydek suluv qiz yoki oydek suluv, mehribon, dilkash qiz.

Zebunnisooyim/Zebunniso xonim – Qo‘qon xoni Abdurahimxonning qizi. Zebiniso (ft.-ar.) – ayollarning eng go‘zali, zebosi.

Zuhra Oyim (Mingoyim) – Qo‘qon xonlari – Qo‘qon hukmdori Norbo‘tabiy (1763-1798)ning rafiqasi, Olimxon va Umarxonlarning onasi, xalq tomonidan u ming qabilasidan bo‘lganligi sababli, *Mingoyim* laqabini berganligi tarixiy manbalarda aytilgan. Uning asl va to‘liq ismi Faxriniso bint Imomqulibek Do‘stqulibeko‘g‘li bahodir mingdir. “Uch o‘g‘ulning nomlari bulardur, Olimxon, Umarxon (bu ikki birodar bir onadin mingiya jamoadinkim, nomini Ming oyim deydurlar. Alhol mazkur xonimning nomida Xo‘qand shahrida madrasa bordur)”²¹. Faxriniso (ar.) – ayollarning faxrlisi, g‘ururi; mag‘rur ayol.

Mohzodaxon – Qo‘qon xoni Xudoyorxonning qizi. Mohzoda (ft.) – oy farzandi, go‘zallar nasliga mansub qiz.

Mohlaroyim – (Mohlar oyim Rahmonquli otaliq qizi, 1792, Andijon – 1842, Qo‘qon) – Amir Umarxonning turmush o‘rtog‘i, mashhur o‘zbek shoirasi. “Amir qaytishi bilan Muhammadalixonning onasi (Mohlaroyim) Xo‘jandga kelib, aka va ukani yarashtirdi”. (Ibratul.145). Mohlar (ft.-o‘z.) – oylar, ya‘ni go‘zallarning sardori. Shakllari: Mohlaroy, Mohlarxon. *Nodir(a)* – siyrak, kam uchraydigan, tengsiz, bebaho. Taxalluslari: **Maknuna** (ar.) – yashirin, berkingan, maxfiy, **Komila** (ar.) – yetuk, mukammal.

Mohlaroyim – Qo‘qon xoni Sheralixonning qizi. “Sheralixon qirg‘iziya ulug‘larining qizlaridan ikki nafarini o‘z nikohiga olib, qirq besh yil shu mavzeda (Talosda) yashadi. Uning birinchi xotinidan Mallabek, So‘fibek va **Mohlaroyim** olamga kelib, ikkinchi mankuhasidan Abdurahmonbekkim, o‘zbeklar uni Sarimsoqbek deb ataganlar, Xudoyorbek hamda Sulton Murodbek bilan **Oychuchukoyim** deganlar borliq maydoniga qadam qo‘ygan

¹⁹ **Бегматов Э.** Антропонимика узбекского языка: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1965. – 28 с.; **Бегматов Э.А.** Ўзбек исмлари маъноси. – Тошкент: ЎЗМЭ, 1998. – 604 б.; **Бегматов Э.** Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – 263 б.

²⁰ **Нийёз Муҳаммад Хўқандий.** Ибратул Хавоқин. – Тошкент: Турон zamin ziyo, 2014. – В. 331.

²¹ **Мирзо Олим Махдум хожи.** Тарихи Туркистон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – В.60.



edilar”. (Ibratul, 457). Mohlar (*ft.-o‘z.*) – oylar, ya’ni go‘zallarning sardori. Shakllari: Mohlaroy, Mohlarxon.

Nodira (Mohlar oyim Rahmonquli otaliq qizi, 1792, Andijon – 1842, Qo‘qon) – shoira. *Nodir(a)* – siyrak, kam uchraydigan, tengsiz, bebaho. Taxalluslari: **Maknuna** (*Maknun* – [a.] yashirin, berkingan, maxfiy), **Komil(a)** (*Komil* – [a.] etuk, mukammal).

Nozikbibi – **Qo‘qon xonligining asoschisi** bo‘lgan Shohruxbiyning rafiqasi. Shohruxbiy hayotligining so‘nggi yillarida, ya’ni taxminan 1719-yilda o‘zbek urug‘larini yanada jiplashtirish maqsadida Qirq urug‘i oqsoqolining qizi Nozikbibiga uylanadi.

Norchuchukoyim – Qo‘qon xoni Sheralixonning qizi. Norchuchuk (*ft.- o‘z.*) chiroyli, shirin (*tyoqimli*) xolli qiz.

Ozodaxon – Qo‘qon xoni Xudoyorxonning qizi. Ozoda (*ft.*) – erkin, xur; baxtli, baxtiyor yoki toza, pokiza, begunoh; Ba’zi manbalarda saxiy, oqko‘ngil deb izohlanadi.

Oyjonoyim – Qo‘qon xoni Abdurahimbiy va Oychuchuk oyimning qizi. “Homilaning vaqti-soati etib, Rahimxon vafotidan so‘ng go‘zal yuzli bir qiz yo‘qlik qo‘ynidan borliq maydoniga keldi. Unga Oyjon oyim deb ism qo‘ydilar”. (Muntaxab.232-b) Oyjon (*o‘z.-ft.*) – oydek suluv va jondek aziz, qadrlil qiz.

Oyimxon – Qo‘qon xoni amir Olimxonning qizi. Oyim (*o‘z.*) – xonim, beka; mo‘tabar oila farzandi; oydek go‘zal, zebo; bezangan yoki imonli, e‘tiqodli, taqvodor.

Oychuchuk oyim bint Ibrohim otaliq – Qo‘qon xoni Abdurahimbiyning xotini, shahrisabzlik Ibrohim kenagasning qizi. Undan Oyjonoyim dunyoga kelgan. “U vaqtda **Kenagas oyim** nomi bilan tanilgan **Oychuchuk oyim bint Ibrohim otaliqning** hayot umri ikki yili kam ellik yoshga etgan bo‘lib, ul ismat va hayolik namunasini eshon janoblari nikohiga kiritdi”²². “**Kenagas oyim**: “Ey farzand, otang va onang o‘limining sababchilari kimligini bilasanmi?” – deb so‘radi ming alam va dard ichida”. (Muntaxab., 240). Kenagas urug‘iga mansubligi uchun shunday nom olgan.

Oychuchuk oyim – Qo‘qon xoni Sheralixonning qizi. “Sheralixon qirg‘iziyaga ulug‘larining qizlaridan ikki nafarini o‘z nikohiga olib, qirq besh yil shu mavzeda (Talosda) yashadi. Uning birinchi xotinidan Mallabek, So‘fibek va Mohlaroyim olamga kelib, ikkinchi mankuhasidan Abdurahmonbekkim, o‘zbeklar uni Sarimsoqbek deb ataganlar, Xudoyorbek hamda Sulton Murodbek bilan **Oychuchukoyim** deganlar borliq maydoniga qadam qo‘ygan edilar”. (Ibratul, 457)

Oftob/Oytoboyim – Narboturning qizi, Qo‘qon xonlari Olimxon va Umarxonlarning singlisi. “Oltinchi yili Oftoboyim, Muhammadalixonning ammasi ham bu olamni tark etdi”. (Ibratul. 124). Oftob (*ft.*) – quyosh, nurli; chaqnagan, nurafshon.

So‘naoyim – Sheralixonning xotini. So‘na (*o‘z.*) – yovvoyi o‘rdak (so‘na)dek chiroyli qiz. Shakllari: So‘nagul, So‘najan, So‘nabeka, So‘nabibi.

Tojiniso – Qo‘qon xonligi asoschisi Shohruxbiyning xotini. Abdurahimxon, Abdulkarimxon va Shodibeklarning onasi. “Nikohida faqat o‘g‘illarining onasi Tojiniso

²² **Муҳаммадҳақимхон Тўра**. Мунтахаб ат-таворих. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – В. 236.



degan ayol bo‘lgan”. (Ibratul, 343). Tojiniso (ft.-ar.) – xolli, xoldor qiz yoki ayollarning eng mo‘tabari, ulug‘i.

To‘raposhsho – Qo‘qon xoni Xudoyorxonning qizi. To‘raposhsha (o‘z.-ft.) – martabali, e‘zozli qiz.

Uluqxon – amir Olimxonning qizi. “Amir Olimxonning uch nafar o‘g‘il farzandi bor bo‘lib, birinchisi mag‘firatli shahid shahzoda Shahrux, ikkinchisi Otaliq xon nomi bilan tanilgan mag‘firatli shahid Ibrohimxon, uchinchisi Murodxon edi. Yana uchta muhtaram qizi bor edi: Oyimxon, Uluqxon va Oftobxon”.

Faxrunniso xonim - Qo‘qon xonligining asoschisi bo‘lgan Shohruxbiy ibn Ashurmuhhammadxonning onasi. “Faxrunniso xonimdan Ashurmuhhammadxonga Alloh taolo yulduzi porloq bir o‘g‘il ato qildi”. (Ibratul. 342)

Xonposhsha – amir Umarxonning kanizagi. Xonposhsha (o‘z.-ft.) – yuksak martabali va xurmatli, e‘zozli qiz.

Xonposhshaxon – Qo‘qon xoni Xudoyorxonning qizi.

Xurshidoyim/Xurshid xonim – Qo‘qon xoni Abdurahimxonning qizi. “Erdonabek, Xurshid xonim va Zebunniso xonim Sharafnisodan tavallud topgandilar”. (Ibratul. 347). Xurshidxonim (ft.) – quyoshdek zebo, oftobmonand qiz, quyosh farzandi.

Sharafnisooyim – Abdullohbek mingning qizi, Qo‘qon xoni Abdurahimbiyning xotini. Erdonabek, Xurshid xonim va Zebunniso xonimning onasi. (Ibratul. 347). Sharaf (ar.) – or, nomus, obro‘, faxr, iftixor, ulug‘lik; aziz, qadr-qimmatli.

Shaxzodaxon – Qo‘qon xoni Xudoyorxonning qizi.

Qurbonjon dodxoh (Qurbonjon Mamatqizi, 1811, O‘sh yaqinidagi Modi qishlog‘i – 1907.1.2) – chor Rossiyasi mustamlakachiligiga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olon rahbari. Qo‘qon xonligi vaziri Olimbek dodxoh Hasanboy o‘g‘lining rafiqasi. U Qo‘qon xonligida martabali lavozimlarda ishlagan Olimbek dodxoh bilan 1831-yilda turmush quradi. Olimbek uni saroyga olib kelgach, Qurbonjon Qo‘qon xoni, uning amaldorlari, saroy hayoti bilan tanishadi. Mashhur o‘zbek shoirlari Nodirabegim, Uvaysiy va boshqalarning ta‘sirida uning dunyoqarashi shakllanadi. Qurbonjon Sheralixonning rafiqasi Jarqinoyim bilan ham yaqin munosabatda bo‘lganligi manbalarda aytilgan. Olimbek dodxoh 1863-yilda fitna qurboni bo‘ladi. Qurbonjon esa eri o‘rniga hokim bo‘lib qoladi. Qo‘qon taxtini egallagan Xudoyorxon Qurbonjonga dodxoh unvonini beradi va Oloy vodiysiga hokim qilib tayinlaydi. Lekin ko‘p o‘tmay, farzandlarini olib ona yurtiga ketib qoladi va “Oloy malikasi” deb dovruq‘ chiqaradi. Qurbonjon deb ism qo‘yilishining sababi shundaki, malika Qurbon hayiti kuni tug‘ilgan edi. Tojik olimi A.G‘afurov tojik antropomimlari tarixi, ba‘zi ismlarning qo‘yilish motivi, ismlarga bog‘liq udumlar haqidagi tahlillarida Qurbon ismining qo‘yilish motivi va bunga oid tadbirlarni quyidagicha izohlaydi: “Ba‘zi hollarda bola boshida haydar soch qoldirib, bolani atashgan. Keyinchalik qo‘i yoki ho‘kiz so‘yilib,



Allohga qurbonlik qilingan. Vaqt o‘tgach, haydar soch kesib olingan, ammo Qurbon ismi bolaga nom sifatida qolavergan”²³.

Xulosa qilib aytganda, farzandga ism qo‘yish ham uzoq o‘tmishdan bizgacha davom etib kelayotgan o‘zgacha bir go‘zal an‘analarimizdan sanaladi. Shu bilan birga, go‘zal, mazmunli ism tanlash ham bir san‘atdir. Shu sababli, ismlar fondini yanada boyitish, ismlar uchun manbalar yig‘ish borasida o‘zbek tilshunosligida ko‘plab ishlar amalga oshirilgan va bugungi kunda ham shunday tadqiqot ishlari davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Ниёз Муҳаммад Хўқандий**. Ибратул Хавоқин.(Тарихи Шахрухий). – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2014. – 700b.
2. **Мирзо Олим Махдум хожи**. Тарихи Туркистон. –Тошкент : Янги аср авлоди, 2009. – В.60.
3. **Муҳаммадхакимхон Тўра**. Мунтахаб ат-таворих. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – В. 236. 1. **Бегматов Э**. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 50.
4. **Гафуров Алим**. Рассказм об именах. Душанбе: Ирфон, 1988. С.5-18.
5. **Бегматов Э**. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1965. – 28 .
6. **Бегматов Э.А**. Ўзбек исмлари маъноси. – Тошкент: ЎзМЭ, 1998. – 604.
7. **Бегматов Э**. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – 263 б.

²³ Гафуров Алим. Рассказм об именах. Душанбе: Ирфон, 1988. С.5-18.